O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

# FarDU.
# ILMIY
# XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yildа 6 marta chiqadi

**2024/3-SON**
**ILOVA TO‘PLAM**

# НАУЧНЫЙ
# ВЕСТНИК.
# ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

**A.Xojimamatov**
Globallashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarning estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni ........ 442
**B.S.Sobirov**
Aktyorlik faoliyatini shaklantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari ........ 448
**D.A.Yuldasheva**
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi ........ 451
**I.I.Qirg'izov**
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janiriga aksiologik munosabatning yuksalishi ........ 455
**I.T.Yuldashev**
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atinig o'rni va ahamiyati ........ 459
**L.E.Tursunova**
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari ........ 462
**M.Achildiyeva**
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari ........ 468
**N.X.Djalalova**
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida ........ 473
**N.R.Mansurova**
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari ........ 478
**O.R.Soliyev**
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi ........ 488
**R.A.Orziboyev**
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo мutafakkirlarining asarlari tahlili ........ 491
**R.J.Soxibov**
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi ........ 495
**A.B.Sulaymanova**
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics ........ 500
**U.T.Isakov**
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi ........ 503
**Z.A.Boboyeva**
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni ........ 508
**J.Sh.Muydinov**
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati ........ 511
**N.M.Madaminov**
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati ........ 515
**M.T.Yunusaliyev**
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv ........ 518
**D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova**
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari ........ 524
**D.K.Rafikova**
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati ........ 528
**S.H.Mamajonov**
Amir Temur mohir strategik ........ 533
**D.M.Xolikova**
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ........ 536
**O.S.Usmonova**
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish ........ 544

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 30 Issue 3, 2024-yil DOI:10.56292/SJFSU/vol30_iss3_2t/a94

UO'K: 711.605+785/789+398

## YANGI O'BEKISTON SHAROITIDA MADANIYAT VA SAN'AT SOHASI RIVOJINING TAKOMILLASHUVI

## IMPROVEMENT OF DEVELOPMENT OF THE FIELD OF CULTURE AND ART IN THE NEW UZBEKISTAN

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

**Yuldasheva Dilafruz Abdumalikovna**

Farg'ona davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti, musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

***Annotatsiya***

*Ushbu maqolada yangi O'zbekiston sharoitida korxona, tashkilotlarda madaniyat sohasini rivojlantirishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va kadrlar sifatini oshirish masalalari batafsil yoritilgan bo'lib, korporativ madaniyatni rivojlantirishni ijtimoiyligi, madaniyat muassasalar faoliyatining samaradorligini ta'minlash borasida qilinayotgan ishlar hamda muallifning taklif va tavsiyalari bilan tanishasiz.*

***Аннотация***

*В данной статье в условиях нового Узбекистана подробно освещены вопросы государственной поддержки развития культуры на предприятиях и организациях и вопросы повышения качества кадров, вы ознакомитесь с рекомендациями.*

***Abstract***

*In this article, in the conditions of the new Uzbekistan, the issues of state support for the development of culture in enterprises and organizations and the issues of improving the quality of personnel are covered in detail. you will get acquainted with the recommendations.*

***Kalit so'zlar:*** *davlat, madaniyat, qo'llab-quvvatlash, madaniyat muassasalari, korporativ madaniyat, rivojlantirish, jarayon.*

***Ключевые слова:*** *государство, культура, поддержка, учреждения культуры, корпоративная культура, развитие, процесс.*

***Key words:*** *state, culture, support, cultural institutions, corporate culture, development, process.*

## KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash global yoki yuzaki o'zgarishlarini amalga oshirishga mutanosib ravishda chuqur yoki qisman o'zgartirilmoqda. Madaniyat muassasalarida korporativ madaniyat rivojlantirish borasida keyingi yillarda yangi innovatsiyalarni joriy etish bilan bog'liq keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy madaniyat muassasalarida tobora yangiliklarni joriy etish natijasi bo'lgan turli obyektlar, hodisalar va jarayonlarni tavsiflashga aylanmoqda.

O'zbekistonda madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligini sohaning raqamlashtirilishi, o'zgaruvchanligi, madaniyat muassasalarining, korporativ madaniyatning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayonlar korporativ madaniyatning rivojlanish bosqichining tegishli real jarayonlariga dasturlarini yaratishga asoslanadi.

Bizning nazarimizda korporativ madaniyat deganda odamlarni yagona uyushmaga (guruhga) birlashishlariga imkon beradigan tasavvurlari, munosabatlari va xulq-atvorining bir qator xususiyatlari tushuniladi va madaniyat muassasalarining imkoni bo'lmagan maqsadlarga erishishlariga imkon beradi. Madaniyat muassasalarida korporativ madaniyat bajaradigan o'z vazifalari va maqsadlari bo'ladi.

Tadqiqotchilar orasida shunday fikr mavjUO‘Ki, madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatni joriy etish orqali o‘z qadriyatlarini shakllantirish, o‘z shaxslarini takomillashtirish qobiliyatlari va ko‘nikmalarini rivojlantirish va olgan bilimlarni to‘la-to‘kis mustaqil ravishda amaliyotda qo‘llay olish, o‘z-o‘zini anglash yo‘llarini ishlab chiqish uchun sharoit yaratishi kerak. O‘zbekistonda madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatning mavjudligi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib o‘ziga xos muayyan samaradorlikka erishgan madaniyat muassalarinining tashkil etilganligida va turli xil korporativ madaniyat shaklini hisobga olgan holda yo‘lga qo‘yilganligida kuzatilishi mumkin.

Shu o‘rinda madaniyat muassasi va korporativ madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi doir alohida jihatlarga to‘xtalib o‘tsak. "Madaniyat muassasasi" tushunchasi nisbatan yaqinda ilmiy hamjamiyatda paydo bo‘ldi, Korporativ madaniyat uning asosiy mazmuni hisoblanadi. Korporativ madaniyat, madaniyat muassasalarini strategik boshqaruv vositasi sifatida o‘rtaga tushib, jamoa a'zolari ichida motivatsion muhitni yaratishi, ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun birlashtirilgan jamoat va shaxsiy qadriyatlar tizimini saqlab qolishi va takomillashishini ta'minlashi mumkin.

Bundan tashqari O‘zbekistonda madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash subyekt-obyekt aloqalari jarayoni bir tomondan, korporativ madaniyat muhitida bunday aloqalar sifatini aniqlash muammosini hal qilish, madaniyat muassasalarining maqsad va vazifalarga erishishga qaratilgan. shu munosabat bilan, madaniyat muassasalarida korporativ madaniyat muhitida bunday aloqalarning sifat samaradorligini aniqlash muammosini hal qilish, madaniyat muassasalarining maqsad va vazifalarini amalga oshirish muammolarning echimini topish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda.

O‘zbekistonda madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash xodimlar bilan o‘zaro munosabatlarga kirishishda, deyarli barcha kasbiy faoliyatlarida korporativ madaniyatning tashkil etilishi bilan baholanadi. Bunday identifikatsiya madaniyat muassasasining korporativ madaniyatni joriy qilishga tegishli ekanini ko‘rsatadi. Bu dalil esa, o‘z navbatida, madaniyat muassasalari sub'ektlari tomonidan, odatda o‘zini namoyon qilmaydigan va yaqqol belgilari bo‘lmagan korporativ madaniyatning qabul qilinganligi va unga rioya qilinayotganligidan dalolat beradi. Korporativ madaniyat strategik boshqaruv vositasi sifatida kadrlar tayyorlash darajasi va sifatiga erishishga bevosita ta'sir ko‘rsatadi va teskari aloqaga yo‘naltiriladi.

Korporativ madaniyatning, hukmron (dominant) madaniyatning va submadaniyatning tashuvchilari stfatida o‘rtaga tushishadi. hukmron (dominant) madaniyat markaziy, umumiy qabul qilingan qadriyatlar asosida quriladi. O‘zbekistonda madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jarayonida shaxsiy va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan tushunchalar, mazmun va madaniyat standartlarini ongli ravishda madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatni targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega.

Madaniyat muassasalarida tor kasbiy guruhlarni farqlash va ularda ustuvorliklarni yaratish bilan bog‘liq. Shunday qilib, dominant korporativ madaniyat butun jamoa tomonidan rasmiy ravishda namoyon bo‘ladi va qabul qilinadi, Aniq ifodalangan O‘zbekistonda madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab –quvvatlash yo‘nalishning boshqa ko‘rinishlari darajasida xodimlar o‘rtasida namoyon bo‘ladi. Bu darajada, qadriyatlarni tashuvchisi sifatida o‘zlarini namoyon qilib, ularning talabalar bilan munosabatlari professional va insoniy aloqalarda amalga oshiriladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab–quvvatlash umumiy korporativ madaniyatiga mos ravishda o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirish pozitsiyasini o‘zlashtirib oladi. Madaniyat korporativ madaniyat elementlariga ega bo‘lishlarini ta'minlash hamda kelajakdagi kasbiy faoliyati samarali kechishi uchun jamoaviy madaniyatni o‘zlashtirish madaniyat muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga yorqin misoldir.

O‘zbekistonda madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatni rivojlantirishni dominant madaniyat rasmiylashtirilgan ko‘rgazmali xususiyatga ega bo‘lib, dasturlarga kiritiladi, u bo‘lajak bitiruvchilarning hulq-atvorida ularning tanlagan kasbi va faoliyatining asosiy (markaziy) qadriyatlariga munosabati tarzida aks ettirilishi ko‘zda tutilgan. Shunga qaramay, tarbiyaviy jihatlari ajratib ko‘rsatilgan, Korporativ xususiyatga ega bo‘lgan ta'lim dasturlarini amalga oshirish, bitiruvchini yangi ish joyida jamoaviy munosabatlar shartlariga to‘liq kirishib ketishini kafolatlay olmaydi, chunki "korporativ madaniyatni" ni shakllanganligiga etarlicha e'tibor berilmaydi.

O‘zbekistonda madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mahsuldor tafakkurning ahamiyatini ongli ravishda anglash xislatlarining zarur majmui bilan qurollantirish va ularning kasbiy faoliyatini anglashning shunday tushunchasiga asoslanishi uning zaruriyatini kasb etadi. Bunday muayyan jamoaning tashkil etilgan subkultural muhitiga tashkiliy moslashuvi qulayligini kafolatlashi mumkin.

O‘zbekistonda madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab–quvvatlash muhimligini anglash, uning zaruriy kunikmalar majumui bilan qurollanganligi madaniyat muassasalari faoliyatidagi fikrlash doirasini shu tushunchalar asosida quradi. Shaxsdagi bunday xususiyatlar majmui bitiruvchilarning muayyan jamoada tashkil etilgan submadaniy muhitga tez moslashishini kafolatlashi mumkin.

Tahlillarimizni biz davom ettirar ekanmiz korporativ madaniyatning zarur maqsadlarini madaniyat muassasalarida shakllantirish buyicha tajribalar odatda ishbilarmonlik uyinlarida, muayyan vaziyatlarda, shuningdek, guruhlar va kichik guruhlarda ishlashni talab qiladigan treninglarda shaxslarning hatti-harakatlarini o‘rganish jarayonida shakllantiriladi va bular refleksiv idrokni kuchaytirishga qaratilgan.

O‘zbekistondagi madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha doimiy hamkorlik asosida qurilgan dasturlar puxta, bosqichma-bosqich va vazifalarining taqsimlanishi diqqat bilan batafsil o‘rganilishi talab etiladi. Madaniyat muassasalarida ko‘p funksiyali korporativ madaniyat samaradoligiga erishish uchun bu faoliyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari negizida ijodiy fikrlash asoslarini o‘rgatish orqali kasbiy va shaxsiy faoliyatdan xabardorlikni ta'minlash lozim.

Biz davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishi doirasida ko‘rib chiqilayotgan masalaning ikkinchi jihati shundaki, madaniyat muassasalarining kasbiy, dominant korporativ madaniyat ishtirokchisiga aylanadi hamda bu madaniy qadriyatlarni qabul qilishga qodir subyekt sifatidagi abstragsiyalanadi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Korporativ madaniyat tashkilotni innovatsion boshqarishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatning elementlari quyidagilardir: korporativ ong va tafakkur, shaxs va uning motivatsiyasi, kasbiy va ijodiy fazilatlari va bag‘rikengligi bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, muhim elementlar sifatida shaxsiy xukmronlik, resurslarga ega bo‘lish, boshqaruvni tegishli darajada markazlashtirish, hayotning barcha sohalarini aniq nazorat qilish ko‘zda tutilgan.

Madaniyat muassasasi rahbarlari shunday vaziyatlarga duch kelishadiki, unda ular yaqqol ko‘zga tashlanib turgan liderlik qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘z xodimlarining mansab ambitsiyalarini ruyobga chiqarish ehtiyojlari bilan bog‘liq muammolarini hal qilishlari kerak bo‘lib qoladi. Bu kabi vaziyatlarda, korporativ madaniyatning yaqqol namoyondasi bo‘lgan rahbarning madaniyati, uning qaror qabul qilishidagi xatti-harakatlari muassasa korporativ madaniyatining qay darajada shakllanganligini aks ettiruvchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatini shakllantirish uchun uning sharoitlarni tahliliy o‘rganish aynan boshqaruv tizimi va boshqariluvchilar, ya'ni rahbariyat va o‘qituvchilarning o‘zaro munosabatalari kesimida amalga oshirildi. Madaniyat muassasalari tomonidan korporativ madaniyat dominantlarini o‘zlashtirilishi va moslashuvchanlik qobiliyatining rivojlantirilishi uchun u madaniyat muassasasi hayotida faol ishtirok etishi kerak, Buning uchun esa zaruriy sharoitlar mavjud bo‘lishi, shundagina u boshqaruv tamoyillarini tushunish va farqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bizning nazarimizda, "Madaniyat muassasining korporativ madaniyati - bu o‘ziga xos bo‘lgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar tizimi bo‘lib, bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan madaniyat muassasasi xodimlari tomonidan qabul qilingan, ularning xatti-harakatlari va jamoaviy ahloq-odob qoidalari bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi." Shuning uchun, bizning fikrimizcha, bugungi kunda madaniyat muassasalarining zaruriy elementi madaniyatining dominantlari, shu bilan bir qatorda submadaniyat qadriyatlari bilan tanishtirish va ularning rivojlanishida, dunyoqarashining kengayishiga hissa qo‘shishdir.

Mazkur yunalishdagi yondashuvni amalga oshirishga madaniyat muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini transformatsiya qilish orqali erishish mumkin. Madaniyat muassasalari faoliyati natijasida madaniy qadriyatlarni tushunishni o‘zlashtirishga boshqacha qiziqish bildiradilar, Ularning e'tiborini submadaniy qadriyatlar jalb etadi. O‘zbekistonda madaniyat

muassasalarida korporativ madaniyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab–quvvatlashni variantlari samarasiz, chunki amaliy kasbiy tajribaga ega emaslar va ta'limiy oʻyinlar va vaziyatlarning shart-sharoitlarini toʻgʻri qabul qila olmaydilar hamda harakatlana olmaydilar.

Ijobiy natija, faqatgina ishchi-xodimlar jamoasini tashkiliy vazifalar bilan bogʻliq boʻlgan qarorlarni optimal tarzda qabul qilish natijasida undan kutilayatgan natijalar samarasi mezonlari va me'yorlari qay darajada boʻlishini tushuntirib berish jarayonini ongli ravishda modellashtirilgandagina koʻplab yangi imkoniyatlar eshigi ochiladi.

Biz yuqorida tavsiflaganimizdek ushbu jarayonlarda ilmiy va kognitiv faoliyat asoslarini egallash jarayoni faollik koʻrsatadi - nutq va fikrlashni tushunarli qilib toʻldirish va etkazish, Hodisalar oʻrtasidagi sabab-oqibat aloqalarini oʻrnatish, tegishli ma'lumotlarni topish, muammolarni hal qilishda foydalanish qobiliyati bilan bogʻliqdir. Oʻzbekistonda madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab–quvvatlash uchun tegishli vakolatlar tuplamini taqdim etadi, ammo buni madaniyat muassasalarida amalda qoʻllashda qiyinchiliklar toʻgʻdiradigan bir qator sabablar mavjud. Madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatni qoʻllash talablari ijodiy kompetensiyalarni, ilmiy-kognitiv fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini korporativ madaniyatning submadaniy elementlari bilan birgalikda shakllantirilishi zarurligini dolzarb ekanligini belgilaydi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda oʻzbekistonda madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash madaniyat asoslarini shakllantirishga qaratilgan dasturlarni tayyorlash boʻlimini faollashtirishni amalga oshirish, Dominant va submadaniy kadriyatlarni anglash va qabul qilishni tarbiyalash uchun muhit yaratish imkoniyatlarining paydo boʻlishi, Boʻlajak mutaxassisning mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorligini ta'minlash va muayyan madaniyat muassasining korporativ madaniyatini ijobiy tushunishining kafolati boʻladi. Bu dalil madaniyat muassasasida korporativ madaniyat faoliyatining barqarorligi va ijobiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, shuningdek, madaniyat muassasalarida korporativ madaniyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning yorqin namunasi hisoblanadi. Biz bu qoʻllab-quvvatlashlarda vaqtida va oʻz oʻrnida qoʻllay olsak soha rivojiga beqiyos hissa qoʻshishimiz shubhasizdir.

## ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 7 августдаги маданият ва санъат фаоллари билан учрашувидаги маърузаси. Халқ сўзи газетаси 8 август сони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 майдаги "Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 19 февралдаги ПҚ-2133-сон Қарори.

4. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан». от 07.02.2017г. №УП-4947, «Народное слово», 2017 г., №28. (6692).

5. Указ Президента Республики Узбекистан от 2 марта 2020 года № УП - 5953 «О Государственной программе по реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017 - 2021 годах в «Год развития науки, просвещения и цифровой экономики»», Национальная база данных законодательства, 03.03.2020 г., № 06/20/5953/0246; 27.03.2020 г., № 06/20/5975/0377.

6. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года № ПП-2909, СЗ РУ, 2017г. №18 (313).

7. Указ Президента Республики Узбекистан от 27.08.2019 г. № УП-5789 « О внедрении системы непрерывного повышения квалификации руководящих и педагогических кадров высших образовательных учреждений», Национальная база данных законодательства, 28.08.2019 г., № 06/19/5789/3659.

8. Baxranova Z. S. CORPORATE CULTURE IN THE PROFESSIONAL TRAINING, PROFESSIONAL DEVELOPMENT AND RETRAINING OF TEACHERS //International Scientific and Current Research Conferences. - 2022.

9. Baxranova Z. S. GENERAL LAWS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: PRINCIPLES, METHODS AND MODELS OF MANAGEMENT //International Scientific and Current Research Conferences. - 2022.

10. Chorieva, M. A. (2022). SOCIO-POLITICAL, CULTURAL AND SPIRITUAL LIFE OF CENTRAL ASIA AND IRAN IN THE X-XI CENTURIES. Journal of Social Research in Uzbekistan, 2(01).